

**YURIDIK HIZMAT KO'RSATISH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH:  
MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA**

**Hamrayeva Sojida Qodirbekovna**

*Namangan viloyat Yuridik texnikumi,*

*Yuristlar uchun ingliz tili fani o'qituvchisi,*

**Isanova Dilnoza Mavlaxonovna**

*Namangan viloyat Yuridik texnikumi, Ta'lim sifatini nazorat*

*qilish bo'limi yetakchi mutaxassisi.*

**Annotatsiya:** *Maqolada bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida fuqarolarga yuridik hizmat ko'rsatish faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlar va bu boradagi chet davlatlar tajribalaridan foydalanish haqida yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *yuridik hizmat, huquqiy ong, qonun ustivorligi, davlat organlari, yuridik shaxs, jismoniy shaxs, yurist, davlat hizmatlari, xalqaro tajriba.*

**Аннотация:** В статье описана работа, проводимая в нашей стране по дальнейшему совершенствованию юридического обслуживания граждан Республики Узбекистан и использованию опыта зарубежных стран в этом направлении.

**Ключевые слова:** юридическая услуга, правосознание, верховенство права, государственные органы, юридическое лицо. физическое лицо, юрист, государственные услуги, международный опыт.

**Abstract:** In the article, citizens of the Republic of Uzbekistan today on further improvement of legal services the work carried out in our country and foreign countries in this regard about the use of experiences.

**Key words:** legal service, legal consciousness, rule of law, state bodies legal entity, individual, lawyer, public services, international experience.

## **KIRISH**

Hozirgi zamон талаби демократик давлатда yashovchi har bir fuqaro o'zining haq huquqini, burchini va imkoniyatlarini to'laqonli bilishi va anglab yetishi zarur. Bu boradagi kamchiliklarni to'ldirish uchun har bir давлатта yuridik hizmat ko'rsatish turlari mavjud. O'z o'rnida yuridik hizmat ko'rsatish faoliyatları orqali fuqarolar farovon yashash imkoniyatiga ega bo'ladilar desak mubolag'a bo'lmaydi.

**Asosiy qism:** Ma'lumki hozirgi kunda yuridik hizmat kuchli huquqiy davlat qurishda fuqarolaring huquqiy ongini madaniyatini rivojlantirishda, давлат hokimiyyati va boshqaruvi organlari hamda xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatida qonun ustuvorligini ta'minlashda juda muhim rol o'ynaydi. Kundan kunga rivojlanishda davom etayotgan yurtimizda yuridik hizmatning davlat hokimyati va boshqaruvidagi o'rni ortib bormoqda. Yurtimizdagи yaratilayotga sharoitlardan unumli foydalanib

tadbirkorlik va ho'jalik yurutuvchi sub'yeqtalar soni ko'payib borayotgani bois yuridik hizmat faoliyatini ko'rsatadigan ob'ektlarga extiyoj ham ortib bormoqda.

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda davlat organlari, xo'jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari faoliyatida qonun ustuvorligi va qonuniylikni ta'minlash yuzasidan kompleks chora-tadbirlar amalgamashirildi. Lekin shuni aytib o'tish joizki mamlakatimizda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini, ayniqsa o'rta va quyi bo'g'inda huquqiy jihatdan ta'minlash hamda ularga sifatlari va professional yuridik xizmat ko'rsatishga qaratilgan islohotlar bosqichma-bosqich amalgamashirilmoxda. Shu bilan birga, sohaga tajribali kadrlarning jalg qilinishidagi kamchiliklar hujjatlar loyihamining iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy ekspertizadan o'tkazilishi sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Buning natijasida qabul qilinayotgan qarorlar va boshqa hujjatlar ko'p hollarda joylarda jismoniy va yuridik shaxslarning e'tirozlariga sabab bo'lmoqda.

Shu kabi mavjud kamchiliklarni to'ldirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-iyun kungi "Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko'rsatish faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori va ushbu Qarorga asosan "Yuridik xizmat ko'rsatish markazlari to'g'risida" gi Nizom qabul qilingan. Ushbu Nizom Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari huzuridagi Yuridik xizmat ko'rsatish markazlarining maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquqlari, majburiyatlar va javobgarligi, shuningdek faoliyatini tashkil etish tartibi belgilangan. Shunga asosan 2021-yil 1-oktabrdan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari huzurida yuridik xizmat ko'rsatish markazlarini respublikaning barcha tuman (shahar)larida tashkil etildi va 2021-yil 4-oktabrdan Markazlar o'z faoliyatini boshladi. Albatta bunday markazlarning hozirgi kundagi ahamiyati juda katta. Zamon bilan hamnafas ravishda davlatimizning har bir jismoniy hamda yuridik shaxslari o'z haq huquqini bilishi shart. Fuqorolardan kelib tushgan murojatlarni izchil va qonuniy eng asososiysi adolatli hal qilishda yuqorida aytib o'tilgan yuridik hizmat ko'rsatish markazlarining ahamiyati muhim o'rin tutadi.

Qonunlar ijrosi, huquqni qo'llash amaliyotining samaradorligi davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari tomonidan tayyorlanadigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihamining sifati bilan bevosita bog'liq. Bunda har bir tashkilotning yuridik xizmati zimmasiga katta mas'uliyat yuklanadi.

Shu bois ham yurtimizda yuridik xizmat sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu yo'nalishdagi normativ-huquqiy baza to'liq yangilanib, yuridik xizmat maqomini belgilashga qaratilgan hukumat qarorlari qabul qilingan. Adliya organlari tomonidan mazkur sohaga uslubiy yordam ko'rsatish, uni rivojlantirish maqsadida o'nlab idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilishi bilan birga, amaliy tadbirlar muntazam tashkil etilmoqda. Bundan tashqari, Adliya vazirligi

huzuridagi Yuristlar malakasini oshirish markazida yuridik xizmat xodimlari malakasi oshirib borilmoqda. Bularning barchasini inobatga olingan holda prizidentimiz tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar ijrosi bosqichma bosqich amalga oshirilib borilmoqda.

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida qonuniylikni yanada mustahkamlash, demokratik va huquqiy islohotlarni amalga oshirishda yuridik xizmatlarning roli va javobgarligini izchillik bilan kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prizidenti tomonidan qabul qilingan qarorlarda ham eng avvalo xalq manfa'ti va fuqarolarning talablari yoki extiyojlar ko'zda tutilgan.

O'z o'rnila bu masala yuzasidan turli tajribali davlatlar ham o'z yo'nalish va chora tadbirlarini qo'llab kelmoqda. Shuning uchun bu sohada tajribali mamlakatlarning foydali tajribalaridan foydalanish ham maqsadga muvofiqdir.

Bundan ikki yil muqaddam "O'zbekistonning qishloq hududlarida davlat xizmatlarini taqdim etishni takomillashtirish va mahalliy boshqaruva darajasini oshirish" qo'shma loyihasi doirasida aholiga zarur qulayliklar yaratish ustida ish olib borildi.

BMT Taraqqiyot dasturi tomonidan Yevropa Ittifoqi, O'zbekiston Adliya vazirligi bilan hamkorlikda amalga oshirgan mazkur loyiha doirasida aholiga xizmat ko'rsatish bo'yicha xalqaro tajriba ham o'rganilib o'zini oqladi desak xato bo'lmaydi.

Qo'shma loyiha doirasida aholiga xizmat ko'rsatish bo'yicha Latviya tajribasi o'rganilganda, bu mamlakatda aholining zaif qatlamiga alohida xizmat ko'rsatilishi ma'lum bo'ldi. Bu umuminsoniy qadriyatlarga mos bo'lgan tajriba O'zbekistonda ham joriy qilindi va hozirda o'zining natijasini berib kelmoqda. Ya'ni joylarda Davlat xizmatlari ko'rsatish markazlari huzurida Xotin-qizlar maslahat guruhlari tashkil etilib, unda ayollar va imkoniyati cheklangan shaxslarga davlat xizmati ko'rsatilishida amaliy ko'mak ko'rsatilmoqda. 2021-yil oxirlarida esa qo'shma loyiha doirasida davlat xizmati ko'rsatish bo'yicha Germaniya va Chexiya tajribasi o'rganildi. Shu bilan birga ushbu mamlakatda yashayotan O'zbekiston fuqarolarining davlat xizmatidan qanday foydalanayotgani bilan tanishildi. Zero, bugungi kunda bu mamlakatda 7,5 mingdan ziyod O'zbekiston fuqarosi ro'yxatga olingan. Soha mutaxassislaridan iborat delegatsiya a'zolari dastavval O'zbekiston Respublikasining Germaniya Federativ Respublikasidagi Favqulodda va muxtor elchisi Nabijon Qosimov bilan uchrashdi. Uchrashuv chog'ida Germaniyada yashayotgan yurtdoshlarimizning FHDYO va davlat xizmatlaridan masofadan turib foydalanishi, ayniqsa, elektron xizmatlar, konsullik xizmatlarini ko'rsatishda zarur ma'lumotlarni elektron axborot almashinuvni orqali ko'rsatish bilan bog'liq mavjud muammolar muhokama qilinib hal qilinib ularni hal etish uchun zarur chora-tadbirlar belgilab olingan edi. Hozirgi kunda esa yurtdoshlarimiz ushbu imkoniyatlardan unumli foydalanishmoqda va bu ularning ortiqcha ovoragarchilik va qog'ozbozliklarini sezilarli ravishda qisqartirdi.

O'zaro muloqotlarda mahalliy hokimiyat organlarining xususiy sektor, nodavlat tashkilotlar, fuqarolar bilan aloqalari va munosabatlarning amaliy mexanizmlari, mintaqaviy rivojlanish dasturlari, mintaqaviy rivojlanish dasturlarida markaziy va mahalliy hokimiyatning o'rni, fuqarolarning ishtiroki, Germaniyada davlat boshqaruvi va detsentralizatsiya, federalizm va mahalliy boshqaruvi kabi mavzular muhokama etildi. Bundan tashqari Bavariyada davlat va mahalliy boshqaruvi tizimi bilan tanishish, Bavariyada amalga oshirilgan va davom etayotgan hududiy va funksional ma'muriy islohotlar bilan tanishish va boshqa uchrashuvlar

Delegatsiya a'zolari, shuningdek, Chexiya poytaxti Pragada ham bo'lib, bu mamlakatdagi mahalliy darajadagi davlat moliyasini boshqarish tizimi, mahalliy byudjetlashtirish va fiskal nomarkazlashtirish, elektron hukumat va davlat xizmatlarini ko'rsatish faoliyati bilan bevosita tanishadi.

Eng muhimi, o'rganilgan ilg'or xalqaro tajribalar asosida aholiga davlat xizmati ko'rsatish tizimi yanada takomillashtiriladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Хакимова , К. и Нематов, Ж. 2021. Особенности оплаты вознаграждения и компенсации расходов адвоката в соглашении об оказании юридической помощи в Республике Узбекистан и зарубежных странах. Общество и инновации. 2, 4/S (май 2021), 19–26. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss4/S-pp19-26>.
2. Положение о юридической службе Жуковской торгово-промышленной палаты // Электронный ресурс. Режим доступа: [<http://www.zhuktpp.ru>] свободный.
3. Лебедев К.К. Правовое обслуживание бизнеса (корпоративный юрист): Учеб.-практ. Пособие. – М.:Юристъ, 2001. – С.15
4. Постановления Правительства РФ от 18 марта 1999 г. № 309 «О повышении тарифных ставок (окладов) Единой тарифной сетки по оплате труда работников бюджетной сферы» // Собрание законодательства Российской Федерации. – 1999. – № 13. – С. 1605
5. Положение о Государственно-правовом управлении Президента Российской Федерации. // Электронный ресурс. Режим доступа: [<http://www.kremlin.ru>] свободный.
6. Саттаров , Ф. 2021. Представительство в гражданском процессе: национальный и зарубежный опыт. Общество и инновации. 2, 8/S (сен. 2021), 8–16. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss8/S-pp8-16>.
7. Қозғистон Республикаси Ҳукуматининг 2004 йил 28 октябрдаги 1120- сонли қарори билан тасдиқланган "Қозғистон Республикаси Адлия вазирлигининг Аҳолига юридик хизмат кўрсатиш ва хуқуқий ёрдамни ташкил этиш қўмитасининг Низоми" // Электронный ресурс. Режим доступа:[<http://www.government.kz/ru/doc>] свободный.

8. Норметова, М. и Неъматов, Ж. 2021. Понятие и сущность юридической помощи. Статус и роль адвокатов при оказании юридической помощи. Общество и инновации. 2, 3/S (апр. 2021), 502–506. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415- vol2-iss3/S-pp502-506>.

9. Постановление Правительства Республики Казахстан от 7 июня 2000 года № 868 “О дополнительных мерах по повышению качества юридической работы в центральных и местных исполнительных органах”. // Электронный ресурс. Режим доступа: [<http://www.zakon.kz/law/news/arhiv>] свободный.; Приказ Председателя Налогового комитета Министерства финансов Республики Казахстан 3 ноября 2002 года №867 «О мерах совершенствования работы юридических служб территориальных органов Налогового комитета Министерства финансов Республики Казахстан». // Электронный ресурс. Режим доступа: [<http://base.zakon.kz>] свободный.